

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY INNOVATION FAOLIYATGA
TAYYORLASH TIZIMI**

*Naimova Zarnigor Hakim qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
pedagogika nazariyasi va tarixi
yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ularni ushbu faoliyatga tayyorlashda mavjud pedagogic shart-sharoitlar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak o'qituvchi, innovatsion kasbiy faoliyat, innovatsiya, pedagogik amaliyot, kompetensiya, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ilg'or tajriba.

Abstract: The article discusses the unique pedagogical and psychological features of the process of preparing future teachers for innovative professional activities. It also describes the existing pedagogical conditions for preparing them for this activity.

Key words: Future teacher, innovative professional activity, innovation, pedagogical practice, competence, creative approach, pedagogical situations, best practice.

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные педагогико-психологические особенности процесса подготовки будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности. Также описаны существующие педагогические условия подготовки их к этой деятельности.

Ключевые слова: будущий учитель, инновационная профессиональная деятельность, инновации, педагогическая практика, компетентность, творческий подход, педагогические ситуации, передовой опыт.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Bu jarayonda davr talabiga javob bermaydigan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan tozalash, globallashuv sharoitida dunyo sahnasida o'zining munosib o'rnini egallashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo'yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani muhimdir. Biroq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu bilan bir joyda turib qolishi kerak emas, balki u jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hamohang tarzda rivojlanib borishi darkor. O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida ta'lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad hamda vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish zarur. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi [1] nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1] deb bejizga ta'kidlanmagan.

Yurtimizda pedagogika yo'nalishida kadrlar tayyorlash sohasiga ham aynan mana shunday nuqtai-nazar bilan yondashilayotgani yaqin kelajakda o'zining yorqin samaralarini berishi shubhasiz. Ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim jabhasi sifatida barkamol shaxs tarbiyasi masalalari o'rta qo'yildi, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Unda O'zbekiston Respublikasi davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, davlat dasturlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy va huquqiy hujjatlar ta'limdagi islohotlarning mazmuni va dolzarb vazifalarini belgilab beradi. Mustaqillik yillarida yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, tibbiy, ma'naviy, shuningdek ta'limiy manfaatlarini

muhofaza qilishga ko‘plab qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa turdagi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi. Mazkur qonunning 36-moddasi ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyatga bag‘ishlanadi. Shuningdek ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o‘quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o‘z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratishi ham nazarda tutilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi”gi Qonuni ham ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni tashkil etishni tartibga soluvchi va mazkur soha rivojiga ko‘maklashuvchi muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur qoningning 3-moddasida innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularni o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha faoliyat deb belgilab qo‘yilgan. Shu asosga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatlarini tashkil etishning huquqiy asosi yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin [3].

Bo‘ljak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni maktab ta‘limiga samarali tayyorlash imkonini beradi[5]. Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o‘rganish natijalari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, pedagogtarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, bilimdonligi va kreativligi o‘quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi[4].

Jumladan pedagoglarning ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning bilim o‘zlashtirish jarayonini kuchytirish, mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirish orqali yuqori intellektual, qo‘yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega o‘qituvchilarni tayyorlash soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Amaldagi ta’lim yo‘nalishi davlat talablarida o‘qituvchilarning

tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan umumiy malaka talablarida tayyorlanayotgan kadrlar o'z sohasiga oid qarorlarni mustaqil qabul qila olishi, pedagogik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi hamda mustaqil ravishda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib borishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi qayd etilgan. Maktab ta'limida bu xususiyatlarga ega bo'lgan pedagoglarda inovatsion kompetentlik juda muhim va alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birgalikda ayrim holatlarda o'quv- tarbiya jarayonida ta'lim beruvchilarda innovatsion kompetentligni shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi. Inovatsion kompetentligning mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod va shakllaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar pedagoglarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan muassasalarda kadrlar tayyorlashda pedagoglarning mustaqil ta'limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Innovatsion kompetentlikning shakllanishida asosiy o'rinni pedagoglarning mustaqil ishlari egallaydi. Bunga esa ta'lim jarayonida pedagoglarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkin. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil ta'lim o'qituvchilarni har qanday sharoitda va holatda o'zlarining aqliy salohiyatlarini tula ishga solish, zarur bo'lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarish jarayonida tulaqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. O'quv rejasi, dastur va darsliklarda belgilangan o'quv materiallari o'zlashtiriladi. Amaliy faoliyatda qo'llashga, kafolatlangan natijalarga erishishga o'rgatiladi. Bu jarayonda imkon qadar pedagogning mustaqil faoliyat yuritishiga e'tibor qaratish ijobiy natija beradi.

Xalq ta'limi tizimida mustaqil ta'limda pedagog o'quv dasturi va darsliklaridan tashqaridagi mutaxassisligi va ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni izlab topishga, tajriba-sinovlar o'tkazgan holda ularni yanada boyitishga

erishadi. Bu, o'z navbatida, tashabbuskor, bunyodkor va ijodkor kadrlarning shakllanishiga turtki bo'ladi. Asosiysi, maktabda qulay innovatsion muhit yaratadi. Mustaqil ta'lim pedagoglar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Pedagoglar bir-birlaridan o'rnak olgan holda o'zlarining aqlarini, kuchlarini, vaqtlarini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik kurish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali pedagog iste'dodining muayyan qirralari ochiladi. Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatlarning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarining takomillashishi ro'y beradi. Ular atrof-muhitdagi narsa va xodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar. Alohida ijodiy muhit yaratish natijasida pedagogik muammo buyicha ma'lumot va tajriba almashish sodir bo'libgina qolmay, alohida birga ijod qilish muhitini yaratish hisobiga, yangi fikrlarga beg'arazlikka erishiladi, u keyinchalik innovatsion kompetentlikning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilansa, innovatsion kompetentlik esa mutaxassisning shaxsiy imkoniyatlari yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llay olish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda 2020-yil 23-sentabr
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risidagi"gi Qonuni
4. Salomova, G. (2014). THE REFLECTION FEATURES OF ABBREVIATIONS AND ACRONYMS OF THE ENGLISH LANGUAGE. In The Second International conference on development of pedagogical science in Eurasia (pp. 174-176).
5. Саломова, Г., Жумаева, Н., & Хамраева, Д. (2018). Методические принципы современных методик обучения английскому языку. Наука XXI века